

**QONUNGA XILOF RAVISHDA CHET ELGA CHIQISH YOKI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA KIRISH UCHUN JINOIY  
JAVOBGARLIKNING ASOSLARI**

*Alijonov Muxammadyusuf Jo'rabek o'g'li*

*Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi  
va amaliyoti" yo'nalishi magistranti*

*e-mail: [alijonovmuhammayusuf@gmail.com](mailto:alijonovmuhammayusuf@gmail.com)*

*Tel: +998934415020*

**ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish uchun belgilangan jinoiy javobgarlikning umumiy tavsifi, mazkur qilmishning ijtimoiy xavfliligi, mazkur qilmish bevosita boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan bog'liq ekanligidan kelib chiqib, shu bilan bog'liq amaldagi qonunchilik hujjatlarining huquqiy tahlili keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** chet elga chiqish, O'zbekiston Respublikasiga kirish, davlat chegarasi, jinoiy javobgarlik, chegara xavfsizligi.*

**ОСНОВАНИЯ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА НЕЗАКОННЫЙ  
ВЫЕЗД ЗА ГРАНИЦУ ИЛИ ВЪЕЗД В РЕСПУБЛИКУ УЗБЕКИСТАН**

*Алижонов Мухаммадюсуф Журабек угли*

*Магистрант Ташкентского государственного юридического университета по направлению "Теория и практика применения уголовного законодательства"*

*Почта: [alijonovmuhammayusuf@gmail.com](mailto:alijonovmuhammayusuf@gmail.com)*

*Тел: +998934415020*

**АННОТАЦИЯ**

*В данной статье приводится общая характеристика уголовной ответственности, установленной за незаконный выезд за границу или въезд в Республику Узбекистан, социальная опасность данного деяния, правовой анализ действующих в связи с этим законодательных актов, исходя из того, что данное деяние непосредственно связано с иными нормативными правовыми актами.*

***Ключевые слова:** выезд за границу, въезд в Республику Узбекистан, государственная граница, уголовная ответственность, безопасность границы.*

## GROUND OF CRIMINAL LIABILITY FOR ILLEGAL EXIT FROM OR ENTRY INTO THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

*Alijonov Mukhammadyusuf Jurabek Ugli*

*Master's student of the Tashkent State University of Law in the field of  
"Theory and practice of application of criminal legislation"*

### ANNOTATION

*This article analyzes the criminal liability established for illegal crossing the state board, exit or entry into the Republic of Uzbekistan, the social danger of this act, the legal analysis of the legislative acts in force in this regard, based on the fact that this act is directly related to other normative legal acts.*

**Keywords:** *going abroad, entering the Republic of Uzbekistan, state border, criminal liability, border security.*

Bugungi kunda dunyo miqyosida sodir bo'layotgan turli geosiyosiy voqeliklar, davlatlarning o'zaro hamkorliklari, integratsiyalashuv, ishchi kuchiga bo'lgan talab, iqlim o'zgarishlari, iqtisodiy vaziyat yoki katta-kichik urushlar va boshqa turli jabhalardagi voqea-hodisalar tufayli dunyo aholisi o'zlarining yashab turgan bir joyidan boshqa joyga ixtiyoriy yoki majburiy ko'chmoqdalar.

Mazkur hodisalar fonida kimlardir moliyaviy jihatdan o'z holatini yaxshilash uchun qasddan mavjud tartibni buzgan holda noqonuniy tarzda migratsiyaga aralashsa, boshqa bir toifa shaxslar o'z mintaqalaridagi notichlik, qaltis geosiyosiy vaziyatlar sababli majburan mavjud tartibni buzib mamlakatdan qochishga majbur bo'lmoqdalar.

Umuman olganda jahonda migratsiya jarayonlarining kuchayishi va davlat chegaralarini g'ayriqonuniy kesib o'tishning bog'liqligi, qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki davlat hududiga kirish bilan bog'liq jarayonlarni tartibga solish, uning uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonuni normalarni takomillashtirish, mazkur jinoyatlarning oldini olish, ushbu qilmishga qarshi kurashishda davlatlarning hamkorligiga alohida e'tibor berilmoqda.

Mazkur jinoyatning aksariyat hollarda faqatgina belgilangan davlat chegara hududlarini noqonuniy kesib o'tish bilan kifoyalanmay, aksariyat hollarda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish, odam savdosi, qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilish, pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi va shu kabi ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan jinoyatlar bilan birgalikda sodir etilayotganligi, ushbu jinoyat uchun javobgarlikning xususiyatlarini o'rganish, jinoyat qonuni tegishli normalarni qiyosiy tahlil qilish, uning sabablarini aniqlash, oldini olish choralarini takomillashtirish dolzarb hisoblanishini belgilab beradi.

Bevosita O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasiga ko'ra:

Qonuniy asoslarda O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lib turgan har kim mamlakat bo'ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno.

Shuningdek, har kim O'zbekistondan tashqariga erkin chiqish huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistonga to'sqinliksiz qaytish huquqiga ega.

Mazkur qoida shaxslarning O'zbekiston bo'ylab erkin harakatlanish, respublikaga kirish va undan chiqish huquqining umumiy qoidasini rahbariy hujjat darajasida belgilab bersa, chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirishning tartibi, qoidalari boshqa qonun va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solingan.

O'zbekiston Respublikasiga kirish, chiqish va davlat chegaralaridan o'tish davomida mazkur qonun hujjatlarida belgilangan tartibni buzish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 223-moddasida nazarda tutilgan (*Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish*) jinoyat tarkibini yuzaga keltiradi. Albatta, bunday holatda shaxsning qilmishiga to'g'ri baho berish, uning sodir etgan qilmishi tufayli zarar yetkazilgan yoki shunday zarar yetkazishning real xavfi yuzaga kelgan ijtimoiy munosabatlar doirasini aniqlash, boshqacha aytganda, qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish muhim ahamiyatga egadir. Jinoyat huquqida qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda esa, har qanday jinoyatning, avvalo, mohiyatini, tushunchasini to'g'ri anglab olish, uning ijtimoiy xavflilik darajasini baholash talab etiladi.

Bevosita Jinoyat kodeksining 223-moddasi dispozitsiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, moddaning birinchi qismi dispozitsiyasida **belgilangan tartibni** buzib chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish yoxud chegaradan o'tish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Ko'rinib turibdiki, mazkur modda bilan jinoiy javobgarlikka tortish uchun boshqa havolaki normalar, qonunchilik hujjatlariga murojaat qilishimiz kerak bo'ladi. Ya'ni, mazkur modda dispozitsiyasida qayd etilgan "**belgilangan tartib**" qanday ekanligiga aniqlik kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

"O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi (bundan buyon matnda Davlat chegarasi deb yuritiladi) – O'zbekiston Respublikasi hududi doirasini (quruqlikda, suvda, yer ostida, havo bo'shlig'ida) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo'ylab o'tuvchi vertikal sathdan iborat<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-31166#-32404>

Davlat chegarasi davlat suvereniteti amal qiladigan hudud doirasini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasiga kirish, chiqish va davlat chegaralaridan o'tish bilan bog'liq munosabatlarni jinoyat-huquqiy qo'riqlashdan maqsad fuqarolarning ko'chib yurish erkinligi bilan bog'liq konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishlarini tartibga solish va yetarli sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bilan birga, qonun chiqaruvchi davlat va jamiyat suvereniteti hamda xavfsizligini ta'minlash uchun respublikadan chiqish va unga kirish, davlat chegaralaridan o'tish tartibini belgilab bergan. Shundan kelib chiqib, davlat chegarasiga tajovuz qilish – bu, avvalo, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining bir me'yordagi tartibiga tajovuz qilish deb topiladi<sup>2</sup>.

Jinoyatning ijtimoiy xavfliligi shu bilan belgilanadiki, u qonun hujjatlari bilan o'rnatilgan davlat chegarasi rejimini buzishga qaratiladi, natijada davlat chegarasini o'rnatishdan belgilangan maqsadlarga tahdid yuzaga keladi. Bu esa, o'z navbatida, ham davlat, ham jamiyat, ham fuqarolar manfaatlariga jiddiy zarar yetkazadi.

M. H. Rustambayevning ta'kidlashicha, “davlat chegarasi davlat suvereniteti amal qiladigan hudud doirasini belgilaydi”<sup>3</sup>. Davlat chegaralari muayyan davlatning hududlari nihoyasini aniq belgilab beradi. Davlat chegaralari daxlsiz va ularning buzilishi davlat suverenitetining buzilishi hisoblanadi<sup>4</sup>. Har bir davlat o'z chegaralari xavfsizligi va buzilmasligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rish huquqiga ega. Davlat chegarasida qonun orqali davlat tomonidan o'rnatiluvchi yoki chegaradosh davlat bilan kelishgan holda o'rnatiluvchi maxsus chegara tartibi mavjud. Qo'shni davlatlar bilan chegaralar shartnoma va qonun asosida belgilanadi.

O'tish joyiga ko'ra chegaralar quruqlik, suv (dengiz, daryo, ko'l), havo va suv osti chegaralariga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasi Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan quruqlikda, Afg'oniston bilan suvda (Amudaryo orqali) chegaradosh. Demak, davlat chegaralari davlatning quruqlikdagi va suv hududidagi, havo kengliklaridagi va yer ostidagi suverenitetining chegarasini belgilaydi.

Davlat chegaralari quruqlikdagi, daryo va ko'llardagi hamda dengizdagi chegaralarga bo'linadi. Quruqlikdagi chegaralar deganda, joy relyefidagi o'ziga xos nuqtalar (masalan, tog' cho'qqilari) yoki jo'g'rofiy koordinatalarning muayyan nuqtalari orqali, shuningdek, parallellar va meridianlar orqali o'tadigan chiziqlar tushuniladi. Daryodagi davlat chegaralari daryolar bo'yicha o'tadi, bunda agar xalqaro

<sup>2</sup> Allanova A.A. Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish uchun jinoiy javobgarlikning umumiy tavsifi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi axborotnomasi, № 1 (45) 2021. 78-bet

<sup>3</sup> Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. T.4. Maxsus qism. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar. Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar: Darslik. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2011. – B. 309.

<sup>4</sup> Konstitutsiyaviy huquq. Ensiklopedik lug'at. / B. Mustafoev, E. Halilov, U. Bozorov va boshq. / Mas'ul muharrir: B. Mustafoev. – Toshkent: O'zbekiston, 2006. – B. 136

shartnomalarda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, ko'pincha kema qatnaydigan daryolardan – asosiy farvaterning o'rtasidan yoki daryoning talvegasidan (eng chuqur joylari chizig'idan), kemalar qatnamaydigan daryolar (soylar)da esa, ularning o'rtasi yoki daryoning asosiy irmog'i o'rtasidan o'tuvchi chiziq chegara hisoblanadi. Ko'llarda va boshqa suv havzalarda davlat chegaralari chegaralarning ko'l yoki boshqa suv havzasi qirg'oqlariga chiqadigan joylarini tutashtiruvchi to'g'ri chiziq orqali o'tadi. Ba'zan, agarda ko'l cho'ziq shaklga ega bo'lib, qarama-qarshi qirg'oqlari qo'shni davlatlarga tegishli bo'lsa, bu chegara mediana bo'yicha o'tkazilishi mumkin<sup>5</sup>.

L. L. Kruglikov<sup>6</sup> qayd etib o'tganidek, chegaraning mavjudligi davlatning muhim belgilaridan biri hisoblanadi va davlat hududga ega ekanligidan, u mazkur hudud ustidan o'z suverenitetini amalga oshirishidan dalolat beradi, chegaraning daxlsizligi esa, mamlakat hududiy yaxlitligi va tashqi xavfsizligining shartlaridan biri hisoblanadi. Chegara daxlsizligining buzilishi aksariyat hollarda jokuslik, terrorizm, qurol-yarog' va giyohvandlik vositalari kontrabandasi singari boshqa xavfli jinoyatlarning sodir etilishi bilan bog'liq bo'ladi.

Amaldagi qonunchilik hujjatlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini kesib qoidalari quyidagi huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi:

“O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida”gi Qonun;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibini takomillashtirishga doir muhim chora-tadbirlar to'g'risida” 2017-yil 16-avgustdagi PF–5156-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda PQ–4079-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibi to'g'risidagi nizom;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-noyabrda 408-son qarori bilan tasdiqlangan “Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kelishlari va O'zbekiston Respublikasidan ketishlari tartibi”;

boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26-dekabrda PQ-4079-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlardan tashqari, ushbu Nizomda nazarda tutilgan tartibda xorijga erkin chiqish va O'zbekiston Respublikasiga kirish huquqiga ega.

<sup>5</sup> Idayatov R.I. Nezakonnoe peresechenie gosudarstvennoi granicy Rossiyskoy Federatsii: ugovovno-pravovye i kriminologicheskie problemy: regional'nyi aspekt. Diss... na sois. step. kand. yurid. nauk. - Mahachkala, 2008. – S. 28.

<sup>6</sup> Уголовное право России. Часть Особенная: Учебник. / Под ред. Л.Л.Кругликова. – М., 2005. – С. 779. / Уголовное право России Част. Особенная: Учебник. / Под ред. Л.Л.Кругликова. – М., 2005. – С. 779.



O'zbekiston Respublikasi fuqarolari xorijga chiqadigan hollarda ularga xorijga chiqish biometrik pasporti rasmiylashtiriladi. Xorijdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ham xorijga chiqish biometrik pasportiga ega bo'lishlari shart.

Jinoyat kodeksi 223-moddasining amaldagi tahririda qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish tushunchasiga ta'rif berilmagan. Unda bayon etilgan dispozitsiya blanket dispozitsiya hisoblanib, jinoyat tarkibini to'g'ri aniqlash uchun boshqa qonun hujjatlariga murojaat qilinadi, ya'ni aynan qaysi qonun hujjatida belgilangan qoida buzilganligi aniqlanishi lozim.

Amaldagi "O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to'g'risida"gi Qonunda davlat chegarasining buzilishi va buzuvchilar haqida qat'iy normalar belgilangan bo'lib, unga ko'ra, quyidagi qoidalarni buzish Davlat chegarasi rejimining buzilishidir:

Davlat chegarasini shaxslar va transport vositalari tomonidan kesib o'tish;

Davlat chegarasi orqali tovarlarni olib o'tish;

Davlat chegarasida va chegara mintaqasida bo'lish, xo'jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish.

Shuningdek, Davlat chegarasini buzuvchilar quyidagilardan iborat:

o'tkazish punktlaridan tashqarida Davlat chegarasini kesib o'tgan yoki kesib o'tishga urinayotgan yoxud o'tkazish punktlarida Davlat chegarasini kesib o'tish tartibini buzgan holda, Davlat chegarasini kesib o'tgan yoki kesib o'tishga urinayotgan shaxslar;

ichki suvlarga, shuningdek chegara daryolariga, ko'llariga va boshqa suv havzalariga Davlat chegarasini kesib o'tishning belgilangan tartibini buzgan holda kirgan chet el kemalari va harbiy kemalari;

Davlat chegarasini samoviy hududda kesib o'tish tartibini buzgan holda Davlat chegarasini kesib o'tgan havo kemalari va boshqa uchuvchi apparatlar.

Davlat chegarasini o'tkazish punktlaridan tashqarida har qanday texnik yoki boshqa vositalar bilan kesib o'tish ham Davlat chegarasini buzish hisoblanadi.

Biroq, bugungi kunda dunyodagi mavjud qaltis vaziyat, geosiyosiy kurashlar va to'qnashuvlar zamonida davlat chegarasi xavfsizligini ta'minlash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shunga ko'ra, qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish jinoyatining oldini olishda unga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy choralari muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof etgan holda, bizningcha, bunday vaziyatda quyidagi maxsus choralarga ham alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq:

1) O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini samarali himoya qilishga ko'maklashuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish;

2) O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasida tezkor va moddiy-texnika resurslarini ko'paytirish, xususan chegara hududida harbiy dronlardan foydalanish amaliyotini joriy qilish;

3) diniy aqidaparastlik va siyosiy ekstremizm tarafdorlarini, terrorchilarni, O'zbekiston Respublikasining chegaraoldi aholi yashaydigan punktlarida davlat chegarasini qonunga xilof ravishda kesib o'tishga yordam beruvchi g'ayriqonuniy qurolli tuzilmalarning tashkilotchilari va ishtirokchilarini fosh qilishning zamonaviy usullarini amalga joriy etish;

4) huquqni muhofaza qilish organlarida, qo'shinlarda, bojxona va chegara xizmatlarida korrupsiyaga qarshi kurashishni yanada kuchaytirish;

5) ichki ishlar xodimlari va harbiy xizmatchilar, bojxona va chegara xizmatlari xodimlarining moliyaviy ta'minotini yaxshilash;

6) huquqni muhofaza qilish organlariga nisbatan aholining ishonchi va hurmatini oshirish, qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish hollarining oldini olishda tegishli organlar bilan aholi-ning hamkorligini kuchaytirish, fuqarolarni bu turdagi faoliyatga moddiy va ma'naviy stimullar tizimi orqali rag'batlantirish;

7) davlatning kuch ishlatish salohiyatiga ega bo'lgan va huquqni muhofaza qiluvchi organlari, ularning respublika va mintaqaviy tuzilmalari va bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtirishni yanada yaxshilashga, joylarda mazkur ishga munitsipal tuzilmalarning rahbarlari va boshqa mansab-dor shaxslar yaqindan yordam ko'rsatishlarini yo'lga qo'yish;

8) davlat chegarasini qonunga xilof ravishda kesib o'tishlarga qarshi kurash borasida qo'shni davlatlar bilan xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi – Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-111453?otherlang=1>
3. "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida"gi Qonun – Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-6605257>
4. Allanova A.A. Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish uchun jinoiy javobgarlikning umumiy tavsifi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi axborotnomasi, № 1 (45) 2021.
5. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. T.4. Maxsus qism. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar. Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar: Darslik. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2011. – B. 309.
6. Уголовное право России. Часть Особенная: Учебник. / Под ред. Л.Л.Кругликова. – М., 2005. – С. 779. / Uголовное право России Chast Osobennaya: Uchebnik. / Pod red. L. L. Kruglikova. – М., 2005. – S. 779.